



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil 6-son

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR
TARIXI

- 5 HAYITOV SHERZOD
RAXMATULLAYEVICH**
Huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari:
nazariy-huquqiy tahlil

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 MADIYEV FAXRIDDIN XOSHIM O'G'LI**
Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tushunchasi
va uning huquqiy tabiati
- 29 ILXOMBEKOV JASURBEK ILXOMBEK O'G'LI**
Internet tarmog'idan axborot olish jarayonini
huquqiy jihatdan tartibga solish va amalga
oshirishda vujudga keladigan muammolar
- 38 КУАТБЕК ГУЛНАР КУАТБЕКОВНА**
Правовые вопросы ведения интернет-
ресурсов представительных органов
местной власти в Узбекистане и Казахстане
- 52 AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**
Konstitutsionalizmning paydo bo'lishi va uning
rivojlanish asoslari

12.00.04 – FUQAROLIK
PROTSESSUAL HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI
VA MEDIATSIYA

- 60 XAKBERDIYEV ABDUMURAD
ABDUSAIDOVICH**
Hakamlik sudining hal qiluv qarori tushunchasi
va huquqiy ahamiyati
- 69 КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА**
Функции нотариата в современном
правовом государстве

- 77 JALILOVA SARDORA ABDUROZIQ QIZI**
Milliy qonun hujjatlarida mediatsiya institutining umumiy tavsifi hamda ushbu soha doirasida aniqlangan muammolar

**12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ**

- 85 MAHBUBA XAMIDOVA ALIJANOVNA**
Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yechimi kutilayotgan chora-tadbirlar

**12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI**

- 93 MAXMADIYAROVA XUMORA
O'KTAMOVNA**
Sud muhokamasida taraflarning protsessual imkoniyatlari tengligini ta'minlash tortishuv prinsipining muhim sharti sifatida

**12.00.12 – KORRUPSIYA
MUAMMOLARI**

- 100 NOROV ILKHOM IBROXIMOVICH**
Exploring dimensions of anti-corruption agencies (in the example of Central Asia)

**13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)**

- 112 МАТЕНОВ РАШИД БЕКИМБЕТОВИЧ**
О роли новых педагогических технологий в преподавании языковых дисциплин в юридическом вузе

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.6./MGCU4495>
UDC: 342: 004.738.5(045)(575.1)

INTERNET TARMOG'IDAN AXBOROT OLIH JARAYONINI HUQUQIY JIHATDAN TARTIBGA SOLISH VA AMALGA OSHIRISHDA VUJUDGA KELADIGAN MUAMMOLAR

Ilxombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Konstitutsiyaviy huquq kafedrası o'qituvchisi,
ORCID: 0000-0002-9867-3363
e-mail: jafarbak22@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada global tarmoqdan axborot olish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan bir qator muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Asosiy urg'u Internetdan foydalanish jarayonida vujudga keladigan salbiy oqibatlarni huquqiy tartibga solish masalalariga qaratilgan. Ilmiy maqolada axborotga bo'lgan huquqni tartibga solish va bu borada konstitutsiyaviy huquqni amalga oshirish nuqtayi nazaridan ahamiyatga ega bo'lgan masalalar tahlil qilingan. Internetning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqqa muayyan tahdidlar mavjudligi, shu sabab tarmoqda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi takomillashtirish zarur bo'lgan yo'nalishlar sanab o'tilgan. Maqolada global tarmoqda mavjud tahdidlardan hisoblangan "Spam" mavzusi batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy olimlarning turli ta'riflari va yondashuvlari o'z aksini topgan. Ushbu tahlil va fikrlar mamlakatimizda global tarmoqdan axborot olish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarning oldi olinishiga va ushbu sohadagi qonunchilikning takomillashtirilishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Internet tarmog'i, axborot, huquq, virtual makon, muammolar, axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq, kompyuter, login va parol, spam, elektron pochta.

ПРОБЛЕМЫ, ВОЗНИКАЮЩИЕ В ПРОЦЕССЕ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ И ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ПРОЦЕССА ПОЛУЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ ИЗ СЕТИ ИНТЕРНЕТ

Илхомбеков Жасурбек Илхомбек угли,
преподаватель кафедры «Конституционное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения анализируется ряд проблем, которые могут возникнуть в процессе получения информации из глобальной сети. Основной акцент сделан на вопросах правового регулирования негативных последствий, возникающих при использовании сети Интернет. Анализируются важные вопросы с позиции регулирования права на информацию и реализации конституционного права в связи с этим. Исходя из специфических характеристик сети Интернет, в статье упоминаются определённые угрозы конституционному праву на информацию. Также перечислены направления совершенствования законодательства, регулирующего отношения, возникающие в сети Интернет. Кроме того, подробно рассматривается понятие спама, который является одной из угроз в глобальной сети. Исходя из содержания данной статьи, отражены различные мнения и подходы к этому вопросу зарубежных учёных. Результаты и заключения проведённого анализа помогут в

предотвращении угроз, которые могут возникнуть в процессе получения информации из глобальной сети, и совершенствовании законодательства в этой сфере в нашей стране.

Ключевые слова: сеть Интернет, информация, закон, виртуальное пространство, проблемы, конституционное право на информацию, компьютер, логин и пароль, спам, электронная почта.

PROBLEMS ARISING IN THE LEGAL REGULATION AND IMPLEMENTATION OF THE PROCESS OF OBTAINING INFORMATION FROM THE INTERNET.

Ilkhombekov Jasurbek Ilkhombek ugli

Lecturer of the Department of Constitutional Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article scientifically analyzes a number of problems that may arise in the process of receiving information from the global network. The main emphasis is on the issues of legal regulation of negative consequences arising from the use of the Internet. The scientific article analyzes important issues from the point of view of regulation of the right to information and implementation of the constitutional right in this regard. Based on the specific characteristics of the Internet, certain threats to the constitutional right to information are mentioned in the article. Also, directions for improvement of the legislation regulating relations established on the Internet are listed. The article discusses in detail "Spam," which is one of the threats to the global network. Based on the content of our scientific article, different definitions and approaches of foreign scientists are reflected in the article. These analyses and opinions serve to prevent threats that may arise in the process of receiving information from the global network in our country and to improve the legislation in this field.

Keywords: Internet network, information, law, virtual space, problems, constitutional right to information, computer, login and password, spam, e-mail.

Kirish

Global axborotlashtirish davrida virtual makonda axborot olish va tarqatish kundalik turmush tarzimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Bugungi kunda ushbu jarayonga biror-bir jihatdan aralashish, uni cheklash va nisbatan cheklov o'rnatish mantiqsizlik sanaladi. Shuning uchun ham virtual makonda axborot olishni huquqiy jihatdan tartibga solish muammolarini muhim masala sifatida tadqiq qilish hamda yuzaga keladigan muammolarga yechim topish muhimdir.

Internetdan ma'lumot olishni huquqiy jihatdan tartibga solish va amalga oshirish muammolari, birinchi navbatda, axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqning turli elementlari bo'yicha ko'plab o'ziga xos tahdidlarning paydo bo'lishi, mavjudligi va jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Mavjud muammolarni huquqiy jihatdan to'g'ri tahlil qilish

esa bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Ayni paytda dunyoda axborot texnologiyalari faol rivojlanmoqda, qariyb chorak asrdan buyon jamiyat global tarmoqqa tobora qaram bo'lib bormoqda. Global Internet ham sifat, ham miqdoriy jihatdan rivojlanmoqda (axborot tarmog'ining operatorlari va foydalanuvchilari soni ortib bormoqda, shuningdek, taqdim etilayotgan xizmatlar doirasi kengaymoqda). Axborot jamiyatining shakllanishi va unda Internet axborot tarmog'idan foydalanish bilan bevosita bog'liq bo'lgan yangi ijtimoiy munosabatlarning paydo bo'lishi munosabati bilan ushbu sohani huquqiy tartibga solish zaruriyati paydo bo'ladi. Yuzaga keladigan munosabatlar sohasidagi qonunchilikning samarali va barqaror rivojlantirishini tarmoqdan foydalanish bilan bog'liq holda ta'minlash mumkin.

Material va metodlar

Mazkur maqolada huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Virtual makondan axborot olish bilan birga, unda axborotga bo'lgan ehtiyojni qondirish jarayonida yuzaga keladigan qator muammolarga ham e'tibor qaratish kerak. Xususan, bu borada Y. Melnikov va A. Terenin o'z izlanishlarida internetdagi eng keng tarqalgan axborot tahdidlariga to'xtalib o'tadilar. Ular ushbu tahdidlarni quyidagicha ifodalaydilar:

- tizim resurslari va ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish: parolni taxmin qilish, himoya va boshqaruv tizimini buzish, maskarad (boshqalar nomidan harakatlar);
- trafikni ushlab turish va almashtirish (to'lov topshiriqlarini qalbakilashtirish);
- IP spoofing (tarmoq manzillarini almashtirish);
- xizmat ko'rsatishni rad etish;
- amaliy darajadagi hujum;
- tarmoqni skanerlash yoki tarmoqni qidirish;
- tarmoqdagi ishonchli munosabatlardan foydalanish [1].

Axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqqa tahdidlarning amalga oshirilishida kelib chiqadigan salbiy huquqiy oqibatlar mavjud. Tahdidlar Internetning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, butun bir kompleks tarzda buzilgan huquqlarning yirik ko'rinishi shaklida, axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqning elementlari sifatida o'zini namoyon qiladi.

Izlanishlar davomida ko'plab olimlarning tadqiqotlari bilan tanishdik. Xususan, F.S. Voroyanskiy, A. Proxorov, A. Yevangeli, R. Nasakin, M.S. Azarov, Y.V. Altovskiy kabi olimlar internetda mavjud tahdidlarni o'rganganlar va tadqiqot olib borganlar. Ushbu olimlarning izlanishlaridan foydalanib, mazkur tad-

qiqotlarni o'rgandik va kelib chiqadigan 8 ta tahdidni tahlil qildik. Quyida ana shu tahdidlarga batafsil to'xtalib o'tamiz.

1) Axborotdan foydalanish huquqlarining buzilishi:

- internet xizmatlarini ko'rsatishni qonunga xilof ravishda rad etish tufayli ma'lumotlarga kirish huquqlarining buzilishi;
- login va parollarning o'g'irlanishi sababli ma'lumotlarga kirish huquqlarining buzilishi;
- pulli ma'lumotlar bazalariga kirishni ta'minlovchi login va parollar o'g'irlanishi sababli ma'lumotlarga kirish huquqlarining buzilishi;
- kompyuter tizimi va uning dasturiy ta'minoti ishlamay qolgani sababli ma'lumotlarga kirish huquqlarining buzilishi – parolni taxmin qilish, xavfsizlik va ma'muriy tizimlarni buzish, boshqa usullardan, jumladan, zararli kompyuter dasturlaridan foydalanish;
- qidiruv yo'nalishini manipulyatsiya qilish orqali ma'lumotlarga kirish huquqlarining buzilishi, ya'ni tizimni manipulyatsiya qilish, domen manzillari tizimiga kirish va Internet kontentini filtrlash tizimlari.

2) Shaxsning iqtisodiy va boshqa qonuniy manfaatlariga qonunga xilof ravishda tajovuz qilish maqsadida identifikatsiya va avtorizatsiya qilish huquqini buzish:

- login va parolni buzish yoki ushlab qolish orqali (elektron pul tizimlari, elektron to'lovlar, bank xizmatlari va boshqalar) ushbu shaxsning to'lov tizimlaridagi hisob raqamlariga ruxsatsiz kirib, uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzish. Bunda turli usullar, jumladan, viruslar, kompyuterning zararli dasturlarini qo'llash va shu orqali akkaunt egalariga tegishli bo'lgan mablag'larini o'g'irlash, ushbu shaxsni obro'sizlantirish, shantaj qilish yoki boshqa noqonuniy harakatlarni amalga oshirish uchun noqonuniy foydalanish;

- shaxsning korporativ moliyaviy-tahliliy, logistika va boshqa kirish cheklangan ax-

borot tizimlaridagi akkauntlariga ruxsatsiz kirish orqali login va parolni buzish yoki ushlab qolish, shaxsning belgilangan huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzish hamda boshqa noqonuniy usullar;

- shaxsning belgilangan huquqlari va qonuniy manfaatlarini elektron imzoni qalbakilashtirish orqali buzish (aksariyat mamlakatlarda ushbu usul orqali firibgarlar fuqarolarning bankdagi hisob raqamlaridan pul mablag'larini yechib oladilar, ularning nomlariga kredit rasmiylashtiradilar va boshqa turli jinoyatlar sodir etadilar);

- shaxsning belgilangan huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzish Internetdagi firibgarlik faoliyati, shu jumladan, bank yoki muayyan bir tashkilot nomidan qo'ng'iroq qilib, fuqarolarga tegishli bo'lgan muhim ma'lumotlarni so'rash va ushbu usuldan foydalangan holda ularning huquqlarini buzish (bugungi kunda mamlakatimizda ko'plab firibgarlar ushbu usuldan foydalanmoqda va aholining aksariyat qismi mazkur holatning qurboniga aylanmoqda).

3) Shaxslararo aloqalar doirasida ma'lumotlardan foydalanish va axborot aylanmasi huquqlarini buzish, shaxslararo yozishmalar jarayonida axborot uzatish jarayoni va kanal-larini himoya qilish huquqlarining buzilishi:

- shaxsiy elektron pochta qutisi tarkibiga yoki tezkor xabar almashish xizmati tizimi-ning interfeysiga ruxsatsiz kirish va ularni boshqarish orqali (elektron pochta manzilini, tezkor xabarlar xizmati tizimidagi manzilni (login) o'g'irlash, elektron pochta yoki tezkor xabar almashish xizmati orqali yuborilgan bir martalik yoki tizimli ravishda ko'rish maqsadida) ushbu huquqlarni buzish;

- qonun bilan qo'riqlanadigan kompyu-ter ma'lumotlariga, ya'ni elektron ma'lumot tashuvchi qurilmaga yoki ularning tarmog'i-dagi ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish orqali ushbu huquqlarni buzish (jumladan, agar ushbu harakat yo'q qilish, bloklash, o'zgartirish yoki o'zgartirishga olib kelgan bo'lsa). Ushbu harakatlar ma'lumotlarni nusxalash, kompyu-

terlar, elektron tizimlar yoki ularning tarmoq-lari ishini buzish orqali, ya'ni parolni taxmin qilib buzish, himoya va boshqaruv tizimlari-ni buzish, boshqa usullardan, shu jumladan, zararli kompyuter dasturlaridan foydalanish.

4) Fuqarolarning shaxsiy hayoti to'g'risi-dagi ma'lumotlar daxlsizligi va himoyasi, ularning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar, shaxs to'g'risidagi faqat ungagina tegishli bo'lgan ma'lumotlar hamda boshqa shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, shuningdek, uning tasvirini himoya qilish huquqini buzish:

- qonun bilan himoyalangan elektron quril-madagi ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish orqali;

- Internet tarmog'ida fuqaroning shax-siy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni, uning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni, shuningdek, shaxs to'g'risi-dagi boshqa sirlarni noqonuniy ravishda tar-qatish orqali.

5) Ma'lumotlardan foydalanish huquqla-rining, shu jumladan, tadbirkorlik va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa iqtisodiy faoli-yat uchun o'z qobiliyatlari va mol-mulkidan erkin foydalanish huquqi, o'z asarlarini nashr etish va o'z ishidan ma'lum bir foyda olish huquqining buzilishi.

6) Axborotni tarqatish (shu jumladan, uzatish) huquqlarining buzilishi:

- Internet ommaviy axborot vositalari-ning tarmoqdagi saytlariga kiberhujumlar (bosma ommaviy axborot vositalarining yoki telekanallarning onlayn versiyalari), shu jum-ladan, ushbu saytlarni yo'q qilish yoki faoliya-tining boshqacha tarzda buzilishi yoki mate-riallarni ruxsatsiz joylashtirish tufayli omma-viy axborot vositalari erkinligiga (masalan, provokatsion maqsadlarda) tajovuz qilish;

- Internet tizimini manipulyatsiya qilish, domen manzillari tizimi va internet kontenti-ni filtrlash tizimlariga kirish tufayli ommaviy axborot vositalari erkinligiga tajovuz;

- reklama joylashtirilishi kerak bo'lgan internet saytlarga kiberhujumlar tufayli uni tarqatish huquqining buzilishi.

7) Axborotdan himoyalaniş huquqlarining buzilishi:

– voyaga yetmagan bolalarning jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy salomatligi hamda rivojlanishiga tahdid soluvchi ma'lumotlarga, shuningdek, ularning ishonchi va tajribasining yetishmasligidan foydalanish, noqonuniy materiallarni internet saytlariga joylashtirish va tajovuzkor reklama yoki majburlash (spam va boshqalar) orqali himoya qilish huquqlarini buzish;

– Internet tarmog'ida fuqarolarning diniy kelib chiqishi, millati yoki irqi bo'yicha insoniy qadr-qimmatini kamsituvchi, millati yoki irqini tahqirlovchi, ekstremistik xarakterdagi boshqa ma'lumotlarni joylashtirish orqali axborotdan himoyalaniş huquqlarini buzish; shaxs sha'nini kamsituvchi va uning shaxs sifatidagi qadr-qimmatini kamsituvchi ma'lumotlar; tuhmat yoki haqoratni o'z ichiga olgan ma'lumotlar; tashkilotning ishbilarmonlik obro'siga putur yetkazadigan ma'lumotlar;

– foydalanuvchilarning ongiga ta'sir ko'rsatadigan ma'lumotlarni Internet tarmog'ida joylashtirish yoki ularga nisbatan boshqa ruhiy yoki psixologik zo'ravonlik qilish orqali axborotdan himoyalaniş huquqlarini buzish.

8) Axborotni olish va (yoki) uni iste'mol qilishni rad etish (axborot bilan tanishish) huquqlarining buzilishi:

– axborotni, shu jumladan, pochta jo'natmalari va elektron xabarlarini (spam) oluvchilarni aniqlash vositalaridan foydalangan holda axborotni tarqatishda axborotni olishni rad etish huquqini buzish;

– reklama xarakteridagi ma'lumotlarni olish yoki undan foydalanishdan bosh tortish huquqini buzish.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqoridagi masalalar axborotga bo'lgan huquqni tartibga solish va bu borada konstitutsiyaviy huquqni amalga oshirish nuqtayi nazaridan ahamiyatga ega. Ko'rib o'tganimizdek, Internetning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, axborotga bo'lgan

konstitutsiyaviy huquqqa muayyan tahdidlar mavjud. Fikrimizcha, virtual makonda, xususan, internet sohasidagi qonunchilikni quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirish zarurati mavjud. Bular:

– kibermakonning umumiy huquqiy rejimini, shu jumladan, internet tuzilmasini va milliy domen zonasini boshqarishni takomillashtirish;

– shaxsiy ma'lumotlar, fuqarolarning shaxsiy hayoti haqidagi ma'lumotlar, jumladan, global tarmoqdagi maxfiy aloqalar xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish;

– Internet tarmog'ida moliya-xo'jalik faoliyatini himoya qilish va tarmoqdan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, jumladan, elektron tijorat, elektron to'lov tizimlari mexanizmlari hamda vositalarini xavfsizlik va muhofaza tizimini takomillashtirish, elektron imzo mexanizmining ishlashini osonlashtirish;

– saylov tizimini shakllantirish jarayonida internet tizimining huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish;

– odil sudlov, sudlar, shuningdek, boshqa davlat hokimiyati organlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish jarayonida internet tizimini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish;

– Internet tarmog'ida va tarmoq bilan bog'liq huquqbuzarliklar, axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqqa noqonuniy tajovuzlar uchun jinoiy va ma'muriy javobgarlik choralari tartibini takomillashtirish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan va takomillashtirilishi zarur bo'lgan milliy qonunchiligimizdagi bo'shliqlarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Noshirlik faoliyati to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida", "Reklama to'g'risida", "Axborotlashtirish to'g'risida", "Telekommunikatsi-

yalar to'g'risida"gi qonunlarimizda yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklar mavjud. Ularning takomillashtirilishi esa axborot olish jarayonining oson va qulay bo'lishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillarni hisobga olgan holda, ko'rsatilgan huquqlar va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilik sohasidagi mavjud muammolarning yechimlarini topishning o'ziga xos murakkabliklari bo'lib, ularni ko'rsatib o'tish masalaning dolzarbligini belgilaydi. Mavjud tahdidlarni birgina maqola davomida obyektiv ravishda keng qamrovli o'rganishning imkoniyati yo'q. Shuning uchun ushbu tahdidlarning faqat bit-tasi, ya'ni spam haqida to'xtalib o'tishni joiz deb hisoblaymiz.

Shu o'rinda spam nima ekanligiga qisqacha to'xtalsak. "Spam" – elektron pochtaga keladigan nomaqbul va istalmagan xabarlar. Bunda odatda mahsulot va xizmatlarni reklama qilish uchun bir vaqtning o'zida bir necha manzilga pochta jo'natmasi amalga oshiriladi.

Spam – qabul qilib oluvchining rozilgisiz jo'natiladigan ommaviy jo'natma – tarmoq chiqindisi. Spamning jo'natilishi kompyuter tarmoqlaridan foydalanish qoidasiga va etiketga zid hisoblanadi. Spamni jo'natuvchilar xakerlar deb ataladi." [2].

Internetda ma'lumot joylashtirishning nisbatan texnologik soddaligi va arzonligi spamga qarshi kurashda, shu jumladan, spam yuborgan shaxsni aniqlashda sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Bu xususda Y.V. Altovskiyning fikrlari o'rinni, nazarimizda. Uning fikriga ko'ra, aslida spammerlar "ma'lumotlar axlati"ni qabul qiluvchilarning shaxsiy yashash maydoniga bostirib kiradilar, chunki elektron pochta xuddi oddiy pochta yoki telefon kabi odamlar o'rtasidagi shaxsiy muloqot uchun mo'ljallangan. Shaxs ishtirokisiz aloqa va murojaatlar uchun boshqa vositalar mo'ljallangan [3].

Xo'sh, spamlar foydalanuvchilarga qay tartibda jo'natiladi? Spamlar asosan skript (Skript – vazifani avtomatik ravishda bajarish uchun yaratilgan harakatlar ketma-ketligini

o'z ichiga olgan kichik dastur) [4] orqali foydalanuvchilarga jo'natiladi. Bunda biror algoritm tuziladi hamda ushbu algoritm ommaga keng miqyosda yuboriladi. Bundan tashqari, spam xabarlarining qo'lda birma-bir virtual manzillarga yuboriladiga ko'rinishi ham uchrab turadi.

Spam orqali quyidagi xabarlar kelishi mumkin:

- pulli qo'ng'iroqlar. Biror mahsulot reklama qilinadi va nomer ko'rsatilib, shu nomerga qo'ng'iroq qilish taklif etiladi. Qo'ng'iroq qilsangiz, avtojavobbergich ko'taradi va sizga ulanganingiz uchun pul yoziladi;

- pulli piramidalarining reklamasi. Pulingiz ko'payib ketishi aytiladi, lekin dastlab biror summa tikish kerakligi ham bildiriladi;

- ma'lumotlar yig'ish. Biror anketa jo'natiladi va siz to'ldirgan ma'lumotlar yig'ilib, statistika qilinadi;

- troyanlarni jo'natish. Trojan dasturchalar sizning kompyuteringiz haqida ma'lumotlar to'playdi [5].

Haqli savol tug'iladi: spammerlar (spam jo'natadigan odamlar yoki tashkilotlar) kerakli pochta manzillarni qayerdan oladi? Bunga javoban aytish mumkinki, virtual makon foydalanuvchisi o'z pochta manzilini kiritib, biror forum yoki saytda ro'yxatdan o'tadi, izoh yozadi. Mana shularning oqibatida manzil spammerlar qo'liga o'tadi. Chunki manzillarni yig'adigan maxsus dasturlar mavjud bo'lib, ular orqali spammerlar virtual makon foydalanuvchilarining manzilini topadi va spam jo'natadigan manzillar ro'yxatiga kiritib, xabar jo'natishni boshlaydi.

Fikrimizcha, spam – ma'lumot oluvchilarni, jumladan, pochta va elektron xabarlarini aniqlashga imkon beradigan vositalar yordamida ma'lumot tarqatishda axborot olishdan bosh tortish huquqining qo'pol ravishda buzilishi hisoblanadi. Bundan tashqari, reklama xarakteridagi ma'lumotlarni olish yoki foydalanishdan bosh tortish huquqi, uni jismoniy shaxslarga yuborishda (uyda (shaxsiy) elektron pochta manzillari, mobil tele-

fonlarga xabarlar yo'llash orqali va boshqalar) ularning shaxsiy hayotlarining daxlsizligiga noqonuniy tajovuz, deb hisoblash to'g'ri bo'ladi.

Xulosalar

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, global tarmoqdan foydalanish jarayonida foydalanuvchilar konstitutsiyaviy huquqlarining ta'minlanishi va ushbu huquqlarining buzilishining oldini olish hozirgi davrning dolzarb masalalari qatoridan o'rin oldi.

Internet tarmog'idan axborot olish jarayonini huquqiy jihatdan tartibga solish va amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan muammolar mavjud bo'lib, ular birinchi navbatda axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqning turli elementlari bo'yicha ko'plab o'ziga xos tahdidlarning paydo bo'lishi, mavjudligi va jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Maqola davomida ushbu muammolarni huquqiy jihatdan tahlil qilishga harakat qildik.

Umuman olganda, olimlar global tarmoqni turlicha tushunganlar. Xususan, A.N. Shermet Internetga "telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali shaxslar va guruhlarining axborot-kommunikatsiya ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan global ijtimoiy-kommunikatsiya tarmog'idir" [6], S.V. Mixaylov o'zining interaktivligi tufayli "Internet ommaviy axborotni ommaviy aloqa vositasiga aylantiradi" [7], V.A. Kopilov "tarmoqli global avtomatlashtirilgan axborot tizimi", [8] I.M. Rassolov uni "xilma-xil (geterogen) makon" deya ta'riflab, "rivojlanayotgan axborot jamiyatining eng muhim infratuzilmasi, ijtimoiy tartibga solish infratuzilmasi" [9], A.A. Lukyanova "Internet – joy, bu odamlardan va ularning son-sanoqsiz o'zaro ta'siridan iborat muhit, bu shuncha-ki texnologiya emas, balki hamkorlik qilish, ishtirok etish va g'amxo'rlik qilishning yangi usulidir" [10], S.V. Malaxov esa Internetni "ma'lum bir mulk to'plami sifatida, jamoat birligi sifatida va nihoyat, axborot bilan aloqalar to'plami sifatida" tavsiflagan [11].

Qonunchiligimiz tahlili shuni ko'rsatdiki, Internetdan foydalanishni tartibga solish muammolari milliy qonunchilikda o'z yechimini topmagan. Ushbu soha nisbatan yangi bo'lgani uchun bugungi kunda sohani to'liq tartibga soluvchi qonun mavjud emas.

Biroq yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 33-moddasida "Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi" [12] degan normaning kiritilishi soha rivoji uchun katta yutuq bo'ldi. Chunki bosh qomus darajasida internetdan foydalanishda davlatning roli belgilandi. Ushbu normaning Konstitutsiyada aks etishi mamlakatimiz fuqarolarining axborot erkinligini yana bir bor ta'minlashga asos bo'ldi. Shundan kelib chiqqan holda mavjud qonunchiligimizdagi bo'shliqlarni bartaraf etish kerak.

Milliy qonunchiligimizda amalda mavjud bo'lgan qonun normalari Internet makonidan foydalanishda kelib chiqadigan munosabatlarni u yoki bu jihatdan tartibga soladi. Shuning uchun ham mavjud milliy qonunchilik orqali ushbu sohani tartibga solishda ayni bir qonun normasiga emas, balki bir nechta normativ huquqiy hujjatlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Milliy qonunchiligimizda Internetning huquqiy tabiatiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Xususan, 2007-yil 15-yanvarda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi [13] Qonunga ko'ra, Internetga ommaviy axborot tarqatish manbasi sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasining "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi [14] va "Axborotlashtirish to'g'risida"gi [15] Qonunlarida Internetga butunjahon axborot tarmog'i sifatida ta'rif berilgan. Ushbu qonunlarda internet makoni axborot-telekommunikatsiya tarmog'i sifatida ta'riflangan. Shular asosida global tarmoq axborot uzatish vositasi yoki aloqa vositasi deya xulosaga ham kelish mumkin.

Umuman olganda, Internetga turli soha olimlari turlicha ta'rif berganlar. Masalaga

falsafa sohasidagi olimlar falsafiy yondash-salar, jurnalistika sohasi vakillari o'z sohalari nuqtayi nazaridan kelib chiqib yondashadi-lar. Shuning uchun ham bugungi kunga qadar Internetga nisbatan umum e'tirof etilgan aniq bir ta'rif mavjud emas.

Internet orqali vujudga keladigan muno-sabatlarni normativ hujjatlar bilan tartibga solish – davr talabi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bugungi kunda jahonning birorta dav-latida internet makoniga doir kodekslashtiril-gan qonunchilik mavjud emas. Internet ma-konining normativ-huquqiy bazasini tahlil qilish jarayoni sohada mavjud bo'lgan nor-mativ bazani tizimlashtirishga zarurat borlig-ini ko'rsatmoqda.

Internet tarmog'ida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi normalar-ning huquqiy tizimdagi o'rnini aniqlash muhim jihatlardan biri sanaladi. Internetdan foydalanish chog'ida global tarmoqning o'zi-ga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan hol-da yuzaga keladigan tahdidlar bor va ularni qonunchilik nuqtayi nazaridan bartaraf etish dolzarb vazifadir. Buning uchun esa Internet sohasining yuqorida keltirib o'tilgan tegishli yo'nalishlaridagi qonunchilikni takomillash-tirish zarur.

Demak, ushbu sohani kompleks tarzda tar-tibga soluvchi qonun qabul qilinishi yuqorida-gi ko'rib o'tilgan muammoli masalalarga amaliy yechim bo'la oladi, deyish mumkin.

REFERENCES

1. Melnikov Yu., Terenin A. Vozmozhnosti napadeniya na informatsionnyye sistemy banka iz Interneta i nekotoryye sposoby otrazheniya etikh atak [The possibility of an attack on a bank's information system on the Internet and some methods of attack]. Available at: <https://studylib.ru/doc/838075/vozmozhnosti-napadeniya-na-informacionnyye-sistemy-banka-iz-...>
2. Internet lug'ati – Spam [Internet dictionary - Spam]. Available at: <https://hidoyat.uz/26722>
3. Altovskiy Ye.V. Ostorojno, spam! – M.: MOO VPP YUNESKO Informatsiya dlya vsekh [Be careful, spam!] - Moscow, MOO VPP UNESCO Information for all]. 2006. Available at: <https://ifap.ru/as/beware.pdf>.
4. What is a script in simple words. Available at: <https://ru.hostings.info/terms/chto-takoe-skript.html>
5. Elektron pochta dushmani – SPAM haqida [About the email enemy - SPAM]. Available at: <https://www.terabayt.uz/post/elektron-pochta-dushmani-spam-haqida>.
6. Sheremet A.N. Internet kak sredstvo massovoy kommunikatsii: sotsiologicheskiy analiz [Internet as a means of mass communication: sociological analysis]. PhD thesis. Yekaterinburg, 2003.
7. Mixaylov S.V. Internet kak sotsialnoye yavleniye [Ternet as a social phenomenon]. PhD thesis. Ulyanovsk, 2003.
8. Kopylov V.A. Informatsionnoye pravo [Information law]. 2nd ed., revised. and additional]. Moscow, Yurist publ., 2002.
9. Rassolov I.M. Teoreticheskiye problemy internet-prava [Theoretical problems Internet-right]. Moscow, RPA MYU RF publ., 2002, pp. 71-72.
10. Lukyanov A.A. Osnovnyye kontsepsii internet-prava [Basic principles Internet-right]. *Information*. 2007, vol 3.
11. Malaxov S.V. Grazhdansko-pravovoye regulirovaniye otnosheniy v globalnoy kompyuternoy seti Internet [Civil regulation of relations in the global computer network Internet]. PhD thesis. Moscow, 2001.
12. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Uzbekistan publ., Tashkent, 2023.

13. Xuzhokova I.M. Pravo na neprikosновенnost chastnoy jizni v sisteme prav cheloveka [The right to privacy in the human rights system]. *Sravnitel'noye konstitutsionnoye obozreniye – Comparative Constitutional Review*, 2007, vol. 2.

14. Kurbaliyya Y. Upravleniye Internetom. Koordinatsionniy sentr natsionalnogo domena seti Internet [Internet management. Coordination center for the national Internet domain]. Moscow, 2010.

15. Sosseti vzlomany! Samye gromkiye vzlomy v istorii [Social networks have been hacked! The most notorious hacks in history]. Available at: <https://mrpl.city/news/view/sotsiseti-vzlomany-samye-gromkie-vzlomy-v-istorii>

16. Shalak V.I. Logicheskiy analiz seti Internet [Logical analysis of the Internet]. PhD thesis.

17. Tedyev A.A. Kontsepsiya ustanovleniya pravovogo regulirovaniya obshchestvennykh otnosheniy, formiruyushikhsya v protsesse ispolzovaniya informatsionnoy sredy seti Internet [Concept of establishing legal regulation of social relations formed in the process of using the Internet information environment]. Available at: <https://www.slideshare.net/gridnev/ss-1337159>.

18. Ilkhombekov J. Development tendencies of the right to receive information in the virtual space. *International journal of social science. Interdisciplinary research*, 2022, pp. 17-22.

19. Ilkhombekov J. The role and role of the media in the information distribution process. *Academic research in modern science*, 2022, vol 1, no.17, pp 80-84.

20. Ilxombekov, J. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ommaviy axborot vositalari erkinligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari... *Scientific progress*, 2022, 3 (4), pp. 1068-1074.

21. Ilxombekov J. Axborot tushunchasi, mohiyati, huquqiy jihati va kafolatlari [Concept, essence, legal aspects and guarantees of information]. *Yurist axborotnomasi – Lawyer newsletter*, 2022, vol. 2, no. 6, pp. 49–53.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 6-SON

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ergashev Ikrom

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 7.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 131.

TDYU tipografiyasida chop etildi.